



Vaziyat

O'z vaqtida ogohlantirish, qutqarish va yordam berish asosiy vazifamizdir!

2025-yil
3-yanvar
№1 (994)



O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi nashri

Gazeta 2004-yil 7-maydan chiqa boshlagan

O'ZBEKISTON XALQIGA YANGI YIL TABRIGI



Muhtaram vatandoshlar!

Siz, azizlarni, ko'p millatli O'zbekiston xalqini yangi – 2025-yil bilan chin qalbidan muborakbod etaman.

Jahondagi murakkab vaziyatga qaramasdan, o'tayotgan yil mamlakatimiz uchun qutli va barakali bo'ldi. Buning uchun har qancha shukrona aytisak, arziydi.

Mehnatkash xalqimizning fidokorona mehnati, siyosiy-ijtimoiy faolligi bilan Yangi O'zbekiston g'oyasi real voqeelikka aylanmoqda.

Oliy Majlis va mahalliy kengashlariga bo'lib o'tgan saylovlar demokratik islohotlarning yangi davriga qadam qo'yganimizni yana bir marta tasdiqladi.

Yurtimizda yuqori texnologiyali yangi sanoat majmualari, infratuzilma va logistika tarmoqlari, avtomobil va temir yo'llar barpo etildi. Biznes, IT va turizm sohalari izchil rivojlanmoqda. Aholi daromadlari va turmush sifati oshmoqda.

Mirishkor dehqon va fermerlarimiz, klasterlarimiz ishchi-xizmatchilari mardona mehnat qilib, mo'l hosil yetishtirdilar.

Yangi uy-joylar, bog'cha va maktablar, oliygo'harlar, madaniyat va sport maskanlari qad ko'tarmoqda. Yurtimiz tobora obod qiyofa kasb etmoqda. Minglab yurtdoshlarimiz Yangi yilni yangi uylarda kutib olmoqda.

Bilimli va shijoatli, navqiron yoshlarimiz ulkan yutuqlarni qo'lga kiritmoqda. Ayniqsa, Olimpiya va Paralimpiya o'yinlarida erishilgan rekord natijalar milliy sportimiz tarixida yangi sahifa ochdi.

Fuqarolik jamiyati institutlari, xususan, mahallaning roli va ta'siri kuchaymoqda. Ma'naviy yuksalish jarayonlari hayotimizda yangi kuch, yangi harakatga aylanmoqda.

Global ahamiyatga ega tashabbuslarimiz jahon hamjamiyati tomonidan qo'llab-quvvatlanmoqda. Xalqaro maydonda O'zbekistonning raqobatbardosh mamlakat, ishonchli hamkor sifatidagi obro'-e'tibori yuksalib bormoqda.

Hech shubhasiz, bularning barchasi diyorimizdagi barqarorlik, do'stlik va hamjihatlik natijasidir.

Bugungi shukuhli oqshomda siz, azizlarga, olijanob va bunyodkor xalqimizga halol mehnatingiz, ona yurtga sadoqatingiz uchun samimiy minnatdorchilik izhor etaman.

Qadrli do'stlar!

Biz 2025-yilga mamlakatimizda "Atrof-muhitni asrash va "yashil" iqtisodiyot" yili, deb nom berdik. Asosiy maqsadimiz – inson va tabiat muvozanatiga asoslangan tizim yaratishdir.

Yangi yilda biznes uchun yanada keng imkoniyatlar yaratiladi. Xususiy mulk daxlsizligini ta'minlash, xorijiy investitsiyalarni faol jalb etish ishlarini qat'iy davom ettiramiz.

Ijtimoiy sohalar, ish haqi, pensiya va stipendiyalar, nafaqalar miqdorini oshirish e'tiborimiz markazida bo'ladi.

Farzandlarimizning zamonaviy bilim va kasb-hunar egalari, barkamol bo'lib tarbiya topishlari uchun bor kuch va imkoniyatlarimizni safarbar etamiz.

Ilm-fan, ta'lim, sog'liqni saqlash, madaniyat va san'at, sport sohaslariga e'tibor yanada kuchaytiriladi.

Muhtaram faxriylarimiz, xotin-qizlar va yoshlarga g'amxo'rlik qilish, ijtimoiy himoya samarasini oshirish ustuvor vazifamiz bo'lib qoladi.

Qurolli Kuchlarimiz salohiyatini mustahkamlash, harbiy xizmatchilar va ularning oila a'zolarini qo'llab-quvvatlash ishlarini yangi bosqichga ko'taramiz.

Muxtasar aytganda, "Inson qadri uchun, inson baxti uchun!" degan olijanob maqsadni barchamiz birgalikda amalga oshiramiz.

Aziz va muhtaram yurtdoshlar!

Barchangizni, chet ellardagi vatandoshlarimiz, xorijiy hamkor va do'stlarimizni bugungi qutlug' bayram bilan yana bir bor chin dildan tabriklayman.

Yangi yil har bir inson, har bir oilaga, jonajon yurtimizga katta-katta yutuq va omadlar olib kelsin!

Hamma ezgu niyatlarimiz ro'yobga chiqsin!

Yangi yil barchamizga muborak bo'lsin!

Shavkat MIRZIYOYEV,
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti

MUHIM KO'RIK-TANLOV

Favqulodda vaziyatlar vazirligi tizimida "Eng yaxshi g'oya va innovatsion ishlanma", "Eng yaxshi dasturiy ta'minot", "Eng yaxshi innovatsion loyiha" yo'nalishlari bo'yicha ko'rik-tanlov o'tkazildi.

Ilmiy-tadqiqot ishlarini yanada rivojlantirish, faol ilmiy muhit yaratish, harbiy xizmatchi va xizmatchilar, kursant va askarlarni ilm-fanga qiziqtirish, yoshlarda ixtirochilik va ratsionalizatorlik qobiliyatini shakllantirish, ilmiy faoliyat bilan shug'ullanuvchilarni qo'llab-quvvatlash maqsadida tashkil etilgan mazkur tanlovning "Eng yaxshi g'oya va innovatsion ishlanma" yo'nalishi bo'yicha 1-o'rinni "Yurtimizda suv ostida qidiruv-qutqaruv va razvedka ishlarini olib borishda foydalaniladigan suv osti droni" bilan Qashqadaryo viloyati FVB "Sho'rtan GKM" obyektlarda yong'in xavfsizligini ta'minlashni tashkil etish bo'limi inspektori katta leytenant Sh. Xurramov qo'lga kiritdi. 2-o'rin esa "Kimyo sanoati korxonalarida zaharlovchi moddalarning xavfli konsentratsiyasini masofadan aniqlash sensorlarini amalda qo'llash uchun ishlab chiqish" qurilmasi bilan FVV Akademi-

yasi kafedra katta o'qituvchisi podpolkovnik Sh.Muhamedovga nasib etdi. 3-o'rinni "Ashyoviy dalil sifatida dog' (iz) ko'rinishda taqdim etilgan yengil alan-galanuvchi va yonuvchi suyuqliklarni lyuminissent tahlil yordamida tadqiqot qilish" qurilmasi bilan FVV Akademiyasi kafedra boshlig'i podpolkovnik A. Lityaga egalladi.

Qolaversa, ko'rik-tanlovning "Eng yaxshi dasturiy ta'minot" yo'nalishi bo'yicha: 1-o'rinni "Fuqarolarning turar joylarida is gazidan zaharlanish, portlash va yong'inlarning oldini olish borasidagi tahlilni, elektron dasturiy ta'minot bo'yicha yuritish tartibi" dasturi bilan Qoraqalpog'iston Respublikasi FVB Taxi-yatosh tumani FV bo'limi boshlig'i o'rinbosari mayor S.Tanirbergenov egallagan bo'lsa, 2-o'rin "Yong'in o'chirish ekipajlari uchun birlamchi razvedka kartasi" dasturi bilan Nukus shahar FV bo'limi boshlig'i o'rinbosari mayor A.Mambetsharipovga va 3-o'rin "Hayot faoliyati xavfsizligi o'quv markazlari tomonidan korxonalar va tashkilotlarning ishchi-xodimlarini yong'in-texnik minimumi bo'yicha hamda ko'ngilli yong'indan saqlash drujinalari a'zolarini masofaviy o'qitish uchun "Yong'in xavf-



sizligi" nomli elektron dasturi" bilan Buxoro viloyati Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi HFXO'M boshlig'i mayor R.Ro'ziyevga nasib etdi.

Shuningdek, "Eng yaxshi innovatsion loyiha" yo'nalishida FVV Akademiyasi kafedra dotsenti podpolkovnik I.Talibdjanov o'zining Mahalliy xomashyolar va sanoat chiqindilari asosida import o'rmini bosuvchi yangi turdagi yong'in o'chirish tarkibini ishlab chiqish" loyihasi bilan 1-o'rinni egalladi. FVV Akademiyasi kafedra dotsenti kapitan R.Choriyev esa "Qutqaruvchilar-

ning maxsus kasbiy-jismoniy va ruhiy tayyorgarlik darajasini aniqlovchi innovatsion yo'lak" loyihasi bilan 2-o'ringa munosib ko'rildi. 3-o'rinni esa "Aholini favqulodda vaziyatlarga tayyorlashning modellashtirilgan virtual ta'lim dasturini yaratish" mavzusidagi loyihasi bilan Fuqaro muhofazasi instituti kafedra professori S.Husanova band etdi.

Ko'rik-tanlov g'olib va sovrindorlari diplom va qimmatbaho sovg'alar bilan taqdirlandi.

Anvar QOBILOV tayyorladi.



XAVFSIZLIK CHORALARI

Chortoq tumani FV bo'limi hamda daxldor tashkilotlar mas'ul xodimlariga profilaktik tadbirlar o'tkazish jarayonida amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlar yuzasidan yo'riqnoma o'tkazildi.

Unga tuman hokimi – Fuqaro muhofazasi boshlig'i Ilhomjon Sattorov va viloyat FVB boshlig'i o'rinbosari podpolkovnik Bahromjon Radjapovlar rahbarlik qildilar.

Dastlab, tumandagi "Beshkapa" va "Do'stlik" mahallalaridagi aholi

yashash xonadonlari va ko'p qavatli xonadonlarning yong'inga qarshi holati o'rganildi. O'rganishlar davomida xonadon egalariга sodir bo'lishi mumkin bo'lgan yongin, chaqnash va is gazidan zaharlanishlarning oldini olish batafsil tushuntirilib, aniqlangan kamchiliklar o'z o'rnida bartaraf etildi hamda xonadonlarning isitish pechlari mo'rikonlari tozalatildi.

Luqmon INAMOV,
Chortoq tumani FV bo'limi boshlig'i,
mayor.

NAZORAT

"Qamchiq" MQYOQB shaxsiy tarkibi tomonidan dovonda insonlarning xavfsizligini ta'minlash, ular bilan sodir bo'lishi mumkin bo'lgan baxtsiz hodisalarning oldini olishda tunda insonlar tunab qoladigan maskanlarda favqulodda vaziyatlarda yong'in xavfsizligini ta'minlash, sodir bo'lgan boshqa hodisalarda ularni xavfsiz evakuatsiya qilish borasida tunu kun xizmat qilayotgan mutasaddi tashkilotlarning tungi nazorat-profilaktik tadbirlari o'tkazib kelishmoqda.

Dovon hududida 15 dan ortiq tunda insonlar tunab qoladigan maskanlar, ya'ni avtoyo'l idoralari yotoqxonalari, ularning maxsus texnikalari, fuqarolarga maishiy xizmat ko'rsatuvchi shoxobchalar xizmatchilarining xo-

nalari, birinchi tibbiy yordam ko'rsatish bo'limlari mavjud bo'lib, ushbu joylarda tungi navbatchilikda yoki xizmatda qolgan ishchi-xizmatchilar soni bo'yicha vazirlik "Qamchiq" MQYOQBning navbatchi mas'ullar bilan doimiy aloqa almashinuvi yo'lga qo'yilgan. Bundan tashqari, ushbu joylarda navbatchi va mas'ullarning xushyorligini oshirish, favqulodda vaziyatlarda yong'in xavfsizligini ta'minlash maqsadida, ularning tungi navbatchilik faoliyati o'rganib kelinmoqda.

Jasurbek KARIMOV,
"QAMCHIQ" MQYOQB
boshqarmasi boshlig'ining birinchi
o'rinbosari.

KORRUPSIYASISIZ FAOLIYAT



FVVO'ta muhim va toifalangan obyektlarda Yong'in xavfsizligini ta'minlashni tashkil etish boshqarmasi "NKMK" AJ va "Navoiyuran" DK obyektlarida Yong'in xavfsizligini ta'minlashni tashkil etish markazida "Korrupsiyasiz faoliyat — rivojlantirish garovi" mavzusida "ma'naviy-ma'rifiy tayyorgarlik" mashg'uloti bo'lib o'tdi.

Unda markaz boshlig'i polkovnik X.Zoirov O'zbekiston Respublikasi "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi qonunining mazmun-mohiyati, qonunosti hujjatlari, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligining "O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida milliy ma'ruza" sini xodimlar e'tiboriga yetkazdi.

Shuningdek, tadbir davomida prezidentimizning "Korrupsiyaga qarshi kurashishda aholining barcha qatlamlari, eng yaxshi mutaxassislar jalb qilinmas ekan, jamiyatimizning barcha a'zolari, ta'bir joiz bo'lsa, "halollik vaksinasi" bilan emlanmas ekan, o'z oldimizga qo'yilgan yuksak marralarga erisha olmasligimiz ta'kidlandi.

Tadbir yakunida bu kabi illatlarning oldini olish bo'yicha barcha mas'ul ekanligi yana bir bor aytib o'tildi.

Nuriddin KARIMOV,
Navoiy viloyati FVB bo'lim bosh
inspektori, kapitan,
Ma'rufjon HAYITOV,
"Navoiy kon metallurgiya kombinati" AJ
obyektlarida yong'in xavfsizligini ta'min-
lashni tashkil etish markazi
xodimi, katta serjant.



KORXONADAGI HOLAT

Yashnobod tumani elektr tarmoqlari korxonasida nazariy va amaliy tarzda uchrashuv o'tkazildi. Uchrashuv davomida xodimlarga respublikamizda bugungi kunda sodir bo'layotgan turli favqulodda vaziyatlar va ularning oqibatlarini, eng achinarlisi ushbu holatlar natijasida insonlarning halok bo'lishi,

tan jarohati olishi va ko'rilayotgan moddiy zararlar haqida aytib o'tildi.

V.PIRMAMATOV,
Yashnobod tumani FV bo'limi katta
inspektori.
A.HAYITBOYEV,
katta leytenant.

YO'RIQNOMALAR BERILDI

"UzAuto Motors" AJ Xorazm viloyati filialida muntazam profilaktik tadbirlar amalga oshirilib kelinmoqda. Filialning asosiy ishlab chiqarish boshqarmasi, bo'lim, bo'linma va sexlarida tashkil qilingan ko'ngilli yong'in o'chirish drujina a'zolari hamda viloyat FVB "UzAuto Motors" AJ Xorazm filiali obyektlarida yong'in xavfsizligini ta'minlashni tashkil etish bo'linmasi harbiy xizmatchilari bilan birgalikda o'quv seminarlar, amaliy mashg'ulotlar o'tkazilmoqda.

Filial hududida oylk bo'yicha targ'ibot uchun har xil turdagi eslatma bannerlar ilib chiqildi va ishchi-xizmatchilarga favqulodda vaziyat sodir bo'lganda harakat qilish tartibi bo'yicha tegishli yo'riqnoma berilmoqda.

Dilmurod SAFAROV,
Xorazm viloyati FVB "UzAuto Motors"
AJ OYXTTE bo'linmasi inspektori,
kapitan.

FM KUNI

Qashqadaryo viloyati FVB tashabbusi bilan Fuqaro muhofazasi instituti va "YUNISEF" tashkiloti hamkorligida Qarshi shahridagi 34-umumta'lim maktabida "Fuqaro muhofazasi" kuni tashkil etildi.

Tadbir davomida mutaxassislar tomonidan turli favqulodda vaziyatlar ro'y berganda ishchi-xizmatchilarning vazifalari yuzasidan tushunchalar berildi.

Shuningdek, mazkur ta'lim maskani ishchi-xizmatchilaridan iborat "Aloqa va xabar berish", "Qutqaruv", "Yong'in o'chirish", "Birinchi tibbiy yordam ko'rsatish" kabi guruhlar ishtiro-

kida shartli zilzila va yong'in natijasida binodan o'quvchilarni xavfsiz hududga olib chiqish harakatlari sinovdan o'tkazildi.

M.OSTONOV,
Qashqadaryo viloyati FVB
boshlig'ining birinchi o'rinbosari –
Shtab boshlig'i, podpolkovnik.

YASHIL MAKON

Chinoz tumanida "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida "Chorvador" MFY hududida tuman FV bo'limi tomonidan "Yashil bog" barpo etilmoqda.

Tadbir davomida "Chorvador" mahallasiga manzarali daraxtlar va mevali ko'chatlar ekilmoqda. Loyihaning asosiy maqsadi – tabiatni muhofaza qilish. Bu tashabbus orqali fuqarolarning ekologiyaga bo'lgan munosabatini yaxshilash, jamoat salomatligini qo'llab-quvvatlash va yashil xo'jalikni rivojlantirishga e'tibor qaratiladi.

Loyiha atrof-muhitni muhofaza qilish va yashil hududlarni ko'paytirishga



yo'naltirilgan muhim qadam bo'lib, aniq natijalarni ko'rsatmoqda.

A.QO'SHAQOV,
Chinoz tumani FV bo'limi boshlig'i
o'rinbosari, mayor.
D.SODIQJONOV,
bo'lim inspektori, kichik serjant.

DAVRA SUHBATI

FVV Fuqaro muhofazasi institutida yo'l harakati xavfsizligi xizmati xodimi leytenant O.Rahmonov ishtirokida "Yo'l qoidasi – umr foydasi" mavzusida davra suhbati o'tkazildi.

Mazkur tadbir davomida yo'l harakati xavfsizligiga oid mamlakatimizda qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar tanishtirildi. Institut jamoasi o'zlarini qiziqtirgan savollarga to'laqonli javob olishdi. Shuningdek, tadbir davomida ishtirokchilarga yo'llarda to'g'ri harakat qilish, yo'l belgilariga to'liq amal qilish, uyali aloqa vositalaridan foydalanmaslik, tezlikni oshirmaslik to'g'risida tafsilyalar berildi.

Yo'l harakati ishtirokchilarining befarqligi tufayli sodir bo'layotgan ayanchli, insonlarning hayotdan ko'z yumishi bilan bog'liq yo'l-transport hodisalari to'g'risida keltirilgan statistik ma'lumotlar yig'ilganlarni yana bir bor hushyorlikka chorladi.



Tadbir yakunida transport vositasini mast holda boshqargan shaxs tomonidan sodir etilgan yo'l transporti hodisasi oqibatida begunoh bir oilaning fojiali yakun topgan qismati haqidagi tafsilotlarga bag'ishlangan videorolik namoyish etildi.

A.MUSTAFOYEV,
FMI markaz boshlig'i, podpolkovnik.
O.MADRIMOVA,
FMI xodimi.

MARKAZDAGI JARAYON

Namangan viloyati Ijtimoiy qo'llab-quvvatlash markazida markaz direktori Rahmonjon Abdullayev bilan birgalikda maskanda profilaktik tadbir o'tkazildi.



Unda binoni kuz-qish mavsumiga tayyorgarlik ishlari, yong'indan darak beruvchi xabargohlar sozligi, yong'in va boshqa favqulodda vaziyatlar sodir bo'lganda binoda istiqomat qilayotgan nuroniy keksalarni evakuatsiya-qutqaruv sxemasi, ichki yong'in o'chirish jo'mraklari, dastlabki yong'in o'chirish qurollari sozligi o'rganilib, ishchi-xizmatchilarga foydalanish yuzasidan tushuntirildi.

Shuningdek, nuroniy bilan suhbat o'tkazilib, sodir bo'lishi mumkin bo'lgan yong'in, chaqnash, is gazidan zaharlanish va boshqa favqulodda vaziyatlardan ehtiyot bo'lishlari yuzasidan tushunchalar berildi.

Islomjon MELIBOYEV,
Namangan viloyati FVB axborot xizmati yetakchi mutaxassisi.

AMALIY ISHLAR

Bo'ka tumani FV bo'limi xodimlari tomonidan korxonada va tashkilotlarda, ijtimoiy soha obektlarida, fuqarolarning yashash uylarida, talabalar turar joylarida, qurilish obektlarida favqulodda vaziyatlarning oldini olish, yong'in xavfsizligini ta'minlan ayniqsa, is gazidan zaharlanishning oldini olish bo'yicha profilaktik tadbirlar o'tkazilmoqda.

Mazkur tadbirlar davomida soha xodimlari tomonidan amaliy-ko'rgazmali ishlar muntazam amalga oshirilmoqda.

Sh.ERGASHOV,
Bo'ka tumani FV bo'limi P va NB kichik inspektori, kichik serjant.

YONG'INGA QARSHI

Uchtepa tumani FV bo'limi mas'ul xodimlari, "Uchtepatumangaz" gaz ta'minoti bo'limi xodimi A.Marupov, tuman dudburon yong'in xavfsizlik xizmati "PERFECT TRADITION INVEST" MCHJ rahbari SH.Nabixonov, O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi qo'riqlash bosh boshqarmasi, Toshkent shahar Qo'riqlash boshqarmasi Uchtepa tumani moddiy ta'minot guruhi xodimlari bilan birgalikda tumandagi "Nayman" mahallasi 22-mavzesidagi O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Qo'riqlash bosh boshqarmasi Toshkent shahar qo'riqlash boshqarmasiga qarashli bo'lgan oilaviy turar joy majmuasiga qarashli binolari va hududini yong'inga qarshi holati yuzasidan o'rganish o'tkazildi.

O'rganish natijasida yong'in xavfsizligi qoidalari buzilishi va yo'l qo'yilayotgan kamchiliklar yuzasidan ishchi-xodimlar bilan favqulodda vaziyatlarning oldini olish va yong'in xavfsizligini ta'minlash mavzularida tushuntirish ishlari olib borildi.

U.TURSUNOV,
Uchtepa tumani FV bo'limi bo'linma inspektori, leytenant.
SH.ERGASHOV,
Toshkent shahar Qo'riqlash boshqarmasi Uchtepa tumani moddiy ta'minot guruhi starshinasi, katta serjant.

Kitob tumani FV bo'limi inspektorlari tomonidan tumandagi Ibn Sino sihatgohida yong'in o'chirish amaliy-taktik mashqi o'tkazildi.

OYLIKDAGI FAOLLIK

Shuningdek, shu yerda ishlovchi ishchi-xizmatchilar va sihatgohdagi davolanuvchilarga yong'inlarni kelib chiqish sabablari, va ularning oldini olish usullari haqida hamda favqulodda vaziyat yoki yong'in sodir bo'lganda harakat qilish ko'nikmalari bo'yicha keng qamrovli profilaktik tushunchalar berib o'tildi. Shuningdek, yig'ilish qatnashchilariga yong'in sodir bo'lganda harakatlanish bo'yicha amaliy chiqish o'tkazilib, yong'in xavfsizligini targ'ib qiluvchi ko'rgazmali tarqatma materiallar taqdim etildi.

I.YUSUPOV,
Kitob tumani FV bo'limi boshlig'i o'rinbosari bo'linma boshlig'i, mayor.



ZILZILA

Navoiy viloyati va tuman hududlarida sodir bo'lishi mumkin bo'lgan favqulodda vaziyatlarning oldini olish, tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlar bilan bog'liq avariyalarda obyekt rahbariyati, qutqaruv tuzilmalari hamda FVDT xizmatlarining hamkorlikdagi harakatlari bo'yicha profilaktik tadbir o'tkazildi.

Shuningdek, favqulodda vaziyatlar, xususan, zilzila sodir bo'lganda ishchi-xizmatchilarning harakat qilishga o'rgatish va tushunchaga ega bo'lishi, o'z xizmat vazifalarini o'rgatish hamda sodir bo'lgan favqulodda vaziyatlarda jabrlanganlarni xavfsiz hududga ko'chirish va birinchi tibbiy yordam ko'rsatishdan iborat bo'ldi. Bundan tashqari, qurilish jarayonlarida yong'in xavfsizligini ta'minlash, sodir bo'lishi mumkin bo'lgan favqulodda vaziyatlarning oldini olishga qaratilgan keng qamrovli profilaktik tadbirlar tashkil etildi.

Aziz SULAYMONOV,
Navbahor tumani FV bo'limi katta inspektori, mayor.
Feruz BOZOROV,
Navoiy viloyati FVB OYXTTEB inspektori, kapitan.

XAVFSIZLIK YO'LIDA

Qashqadaryo viloyati FVB boshlig'i rahbarligida Qarshi shahridagi "Erqo'rg'on" oziq-ovqat bozorida maxsus-taktik o'quv mashg'uloti o'tkazildi.

Mashq g'oyasiga ko'ra bozor hududida shartli yong'in yuzaga kelgan bo'lib, uni zudlik bilan bartaraf etish, bino ichida qolgan fuqarolarni xavfsiz hududga olib chiqish, jabrlanganlarga birinchi tibbiy yordam ko'rsatish tadbirlari amalga oshirildi.

Tadbirlar davomida mas'ullar tomonidan bozor ma'muriyatiga yong'in xavfsizligini ta'minlash bo'yicha kechiktirib bo'lmaydigan zarur tavsiyalar berildi.

Doimiy ravishda boshqarma mas'ullari tomonidan qurilish obektlarida tungi va kunguzgi nazorat tadbirlari o'tkazilmoqda.

Tadbirda quruvchi ustalarning hayoti va sog'ligini muhofaza qilish, qurilish obektlarida sodir bo'lishi mumkin bo'lgan har qanday favqulodda vaziyatlardan ogoh bo'lish va oldini olish bo'yicha tushuntirish ishlari olib borilmoqda.

Qashqadaryo FVB axborot xizmati.

MASHQ

Namangan shahar "Obihayot" mahallasidagi ko'p qavatli uylarda favqulodda vaziyatlarning oldini olish, ularni bartaraf etish va bunday vaziyatlarda harakat qilish davlat tizimi boshqaruv organlari hamda kuch va vositalarini samarali qo'llash yuzasidan rahbarlar tarkibi hamda bo'linmalarining hamkorlikdagi harakatlarini takomillashtirish maqsadida ko'rgazmali maxsus-taktik o'quv mashqi o'tkazildi.

Unda shartli ravishda sodir bo'lgan yong'inni bartaraf etishda Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi qutqaruvchilari va favqulodda davlat quyi tizimlari xodimlarini harakatlari amalga oshirildi.

Tadbir so'ngida viloyat FVB boshlig'i polkovnik Bunyod Egamnazarov tomonidan yo'l qo'yilgan kamchiliklar aniqlanib, amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlar yuzasidan yo'riqnomalar berildi.

Akmajon O'RINBOYEV,
Namangan viloyati FVB boshlig'ining birinchi o'rinbosari – Shtab boshlig'i, polkovnik.

KORXONADA MASHQ

Jizzax viloyati FVB tomonidan tegishli tashkilotlar bilan hamkorlikda favqulodda vaziyatlarning oldini olish hamda yong'in xavfsizligini ta'minlash maqsadida doimiy ravishda profilaktik tadbirlar va o'quv mashg'ulotlari o'tkazilmoqda.

Zarbdor tumani FV bo'limi tomonidan yong'in-qutqaruv qismi shaxsiy tarkibi va obyekt fuqaro muhofazasi tuzilmalarining jangovarligi hamda favqulodda vaziyatlarning oldini olish va sodir bo'lganda to'g'ri harakatlanish bo'yicha bilim-ko'nikmalarini oshirishda, og'ir sharoitlarda yong'inlarni o'chirish, har qanday ruhiy qiyin sharoitlarda jangovar vazifalarni yuqori natijali echimini ta'minlovchi kasbga xos tajriba va mahoratlarini rivojlantirish maqsadida, "Adirobod" mahallasidagi "Zarbdor Tekstil" XK xorijiy korxonasida maxsus-taktik o'quv mashqi o'tkazildi.

O'quv mashqi rejasiga ko'ra, obyekt shartli ravishda kuchli yong'in yuzaga kelganligi aniqlandi. Voqea joyiga yong'in o'chirish avtomobillari yetib kelgunga qadar obyektning fuqaro muhofazasi tuzilmalari tomonidan dastlabki qutqaruv harakatlari olib borildi. Ish jarayoni to'xtatilib, evakuatsiya ishlari tashkil etildi va barcha ishchi-xizmatchilarning xavfsizligi ta'minlandi. Favqulodda vaziyat joyiga yetib kelgan qutqaruvchilar tomonidan jabrlanuvchilar aniqlanib, ularni zudlik bilan qutqarish choralarini ko'rildi. Birinchi tibbiy yordam ko'rsatilib, tez tibbiy yordam xizmati xodimlariga topshirildi.

Ko'rilgan tezkor choralar natijasida shartli yong'in to'liq qurshab olinib, batamom o'chirildi.

Kamol TURSUNBOYEV,
Zarbdor tumani FV bo'limi boshlig'i, kapitan.

O'Q OTISH MASHG'ULOTI

FVV Boshlang'ich tayyorgarlik va malaka oshirish markazining doimiy va o'zgaruvchan shaxsiy tarkibi o'rtasida o'q otish mashg'ulotlari doimiy tarzda o'tkazilib kelinmoqda.

Bu esa o'z o'rnida, o'q otish sport turlarini yanada ommalashtirish, yoshlarni man'naviy-axloqiy va harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularning orasidan sportchilarni saralab olish tizimini takomillashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

M.ASATOV,
FVV Boshlang'ich tayyorgarlik va malaka oshirish markazi sikl o'qituvchisi, mayor.

ANJUMAN

FVV Akademiyasida “Yong’in va portlash xavfi yuqori bo’lgan obyektlarda favqulodda vaziyatlarning oldini olish: muammo va yechimlar” ilmiy-amaliy anjumanini o’tkazildi.

Unda O’zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi yosh olimlar kengashi, Energetika vazirligi, Qurilish va uy-joy kommunal xo’jaligi vazirligi, Bojxona qo’mitasi, Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat transport universiteti, Fuqaro muhofazasi instituti, Yong’in xavfsizligi va Favqulodda vaziyatlar muammolari ilmiy tadqiqot instituti, Uzkimyo sanoati qo’mitasi, IIV Akademiyasi, Jamoat xavfsizligi universiteti, Bojxona instituti kabi yigirmadan ortiq tegishli tashkilotlarning mas’ul xodimlari, FVV Akademiyasi professor-o’qituvchilari, harbiy xizmatchilari, xizmatchilar va kursantlar ishtirok etdilar.

Anjumanda FVV Akademiyasi boshlig’i o’rinbosari polkovnik Azizbek Latifjonov yong’in va portlash xavfi yuqori bo’lgan obyektlarda sodir bo’lishi mumkin bo’lgan favqulodda vaziyatlar hamda ularni bartaraf etishning

muammo va yechimlarini o’rganishga, favqulodda vaziyatlarning oqibatlarini kamaytirish va ularni samarali bartaraf etishga, kursantlarga nazariy va amaliy tushunchalar berishga, ularning bu sohadagi bilimlarini boyitishga, mamlakatni rivojlantirishning strategik maqsadlariga erishishda muhim ahamiyat kasb etishini alohida ta’kidladi.

So’zga chiqqanlar, kimyoviy moddalarning respublika hududiga kirishi va saqlanishida bojxona nazorati, yonish va portlash xavfi yuqori bo’lgan kimyoviy moddalarni saqlash, tashish, ulardan foydalanish va ularni yo’q qilish tadbirlarini xavfsiz tashkil etish, obyektlarda is gazidan zaharlanish hamda gaz-havo aralashmasini chaqnashi bilan bog’liq favqulodda holatlarning kelib chiqish sabablari va ularning oldini olish choralarini to’g’risida keng fikr-mulohazalar bildirdilar.

Farhodjon XOJAYEV,
FVV Akademiyasi katta o’qituvchisi,
mayor.

ARNASOYDAGI VOQEA

Arnasoy tumani FV bo’limi tomonidan tumanda favqulodda vaziyatlarning oldini olish, aholiga favqulodda vaziyatlarda to’g’ri harakatlanishni o’rgatish va xavf-xatarlardan ogohlantirish bo’yicha profilaktik tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Tadbirlar davomida aholi orasida elektr va gaz jihozlaridan xavfsiz foydalanish qoidalarini, is gazidan zaharlanish va gaz-havo aralashmasi chaqnashi bilan bog’liq holatlarning oldini olish masalalariga alohida e’tibor qaratilmoqda. Xodimlar tomonidan fuqarolarga tabiiy va texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlar yuz berganda qanday harakat qilish kerakligi haqida tushuntirish ishlari olib borilmoqda.

Bundan tashqari, tumandagi muassasalar, tashkilotlar va aholi punktlarida yong’in xavfsizligi qoidalariga rioya

qilish bo’yicha tavsiyalar berilib, favqulodda vaziyatlarning oldini olishga doir tarqatma materiallar tarqatilmoqda. Bo’lim xodimlari maktablar va boshqa ta’lim muassasalarida o’quvchilar uchun maxsus targ’ibot tadbirlarini ham o’tkazib, yosh avlodni favqulodda vaziyatlarda to’g’ri harakat qilishga o’rgatishga e’tibor qaratmoqda.

Anvar QILICHYEV,
Arnasoy tumani FV bo’limi boshlig’i
o’rinbosari, kapitan.

ZARUR KO’RSATMALAR

Qashqadaryo viloyati FVB, shuningdek, tegishli tashkilotlar mas’ullari tomonidan viloyat Ko’p tarmoqli tibbiyot shifoxonasida tungi o’rganishlar o’tkazildi.

Mutasaddilar asosan bemorlar uchun yaratilgan shart-sharoitlarni ko’zdan kechirib, binoning isitish tarmog’idagi mavjud muammolarni tezkorlik bilan bartaraf etish yuzasidan shifoxona mas’ullariga sarflanayotgan energiya resurslaridan oqilona foydalanish bo’yicha aniq hisoblar ishlab chiqish yuzasidan tavsiyalar berildi.

Shuningdek, ushbu obyektida bir qator yong’in xavfsizligi yo’nalishida kamchiliklar aniqlanib, ularni muassasa rahbariyati tomonidan qisqa vaqt ichida bartaraf ettirish yuzasidan Qarshi shahar FV bo’limi mas’ullariga vazifalar yuklandi.



F.MIRZAYEV,
Qashqadaryo FVB boshlig’i,
polkovnik.

EZGU TAMOYIL ASOSIDA

Kosonsoy tumani FV bo’limiga birlashtirilgan 25-umumta’lim maktabida yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ular ongiga tinchlik va to’uvlikni ko’z qorachig’idek asrab-avaylash zarurligini chuqur singdirish, “Xalq va armiya – bir tanu, bir jondir!” ezgu tamoyili asosida tadbir bo’lib o’tdi. Unda Pop tumani G’urumsaroy harbiy qismi bilan hamkorlikda ko’rgazmali chiqishlar namoyish etildi. Ayniqsa, maydon uzra harbiy orkestr ijrosida yangragan

navolar, faxriy qorovullarning saf tortishi hamda konsert dasturi barchada katta taassurot qoldirdi.

Shuningdek, tadbir davomida tuman favqulodda vaziyatlar bo’limi tomonidan o’quvchi-yoshlarga yong’in o’chirish va harbiy texnika va qurol-aslahalar namoyishi o’tkazildi.

Azamjon AHMATJANOV,
Kosonsoy tumani FV bo’limi boshlig’i,
podpolkovnik.

MA’RIFAT DARSISI

FMI boshlig’i polkovnik B.Hikmatov tomonidan harbiy xizmatchi va xizmatchilarning ma’naviy-ma’rifiy saviyasini oshirish va yuksak vatanparvarlik ruhida tarbiyalash yo’nalishida “Rahbar ma’naviyati va kasb etikasi” mavzusida ma’naviyat va ma’rifat mashg’uloti o’tkazildi.

Unda polkovnik B.Hikmatov tomonidan mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar, har bir rahbar xodimlardan yuksak kasbiy mahoratni, tashabbuskorlikni, ma’naviyatni, o’z kasbiga va yurtiga fidoyiligi, murakkab sharoitlarda davlat manfaatlarini, fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilishi va bu yo’nalishda yuksak ma’naviyat, odob-axloq etikasini namoyon qilishi lozimligi haqida ta’kidlab o’tdi.



Odilbek MIRKAMOLOV,
FMI bo’lim boshlig’i, kapitan.
Boboraxim DAVUROV,
bo’lim katta ilmiy xodimi.

PROFILAKTIKA



Buxoro viloyati FVB “Aziya Trans Gaz” MCHJ OYOXTTEB 23-YOQQ xodimlari tomonidan obyektlarda

qishga tayyorgarlik ko’rish, mavsum mobaynida yuzaga kelishi mumkin bo’lgan favqulodda vaziyatlarning oldini olish va yong’in xavfsizligini ta’minlash maqsadida profilaktik ishlar, ishchi-xizmatchilar bilan suhbatlar o’tkazilib borilmoqda.

Anvar KAMOLOV,
Buxoro viloyati FVB “Aziya Trans Gaz” MCHJ OYOXTTEB
inspektori, kapitan.

TARG’IBOT

Kosonsoy tumani FV bo’limi hamda hamkor tashkilotlar tomonidan tumandagi “Ulug’ chinor” madaniyat va istirohat bog’ida attraksionlar bilan bog’liq favqulodda vaziyatlarning oldini olish va oqibatlarini bartaraf etishga qaratilgan targ’ibot tadbirlari o’tkazildi.

Shuningdek, bog’ atrofidagi umumiy ovqatlanish korxonalarida yuz berishi mumkin bo’lgan yong’inlar, chaqnash holatlari, uy sharoitida tayyorlangan konserva mahsulotlari va ovqatdan zaharlanish, botulizm kasalligi hamda is gazidan zaharlanishning oldini olish bo’yicha tushuntirish ishlari olib borildi.

Bog’dagi yangi yil archasining texnik mustahkamligi, yong’in xavfsizligi qoidalariga asosan o’rnatilganligi ko’zdan kechirilib, tunu kun navbatchilik tashkil etildi.

Anvar ARIPOV,
Kosonsoy tumani FV bo’limi boshlig’i
o’rinbosari, mayor.

HARBIY QISMDA

Jizzax viloyati Sharof Rashidov tumani FV bo’limi tomonidan Mudofaa vazirligiga qarashli Jizzax garnizonidagi harbiy qismda profilaktik tadbir tashkil etildi. Tadbir Jizzax garnizoni Yong’in nazorati inspeksiya va harbiy qism qo’mondonligi bilan hamkorlikda amalga oshirilib, unda harbiy xizmatchilar va ularning oila a’zolari ishtirok etdilar.

Tadbir davomida harbiy xizmatchilarga va ularning oila a’zolariga yong’in

xavfsizligi qoidalariga rioya qilish, is gazidan zaharlanish, gaz va havo aralashmasining chaqnashi bilan bog’liq holatlarning oldini olish, shuningdek, gaz va elektr jihozlaridan xavfsiz foydalanish bo’yicha muhim ko’rsatmalar berildi. Tabiiy va texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlar sodir bo’lganda qanday to’g’ri harakat qilish kerakligi haqida batafsil ma’lumot yetkazildi.

Shaxbozbek RUSTAMOV,
Sharof Rashidov tumani FV bo’limi
bo’linma boshlig’i, kapitan.



OFATGA YO'L QO'YMAIYLIK

Toshkent viloyati hududida sodir bo'lishi mumkin bo'lgan yong'inlar bilan bog'liq favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bartaraf etish maqsadida barcha turkumdagi obyektlarda, ayniqsa, ko'p qavatli uylar va yakka tartibdagi uy-joylar, bozor, savdo majmualari va aholi ko'p yig'iladigan boshqa obyektlarda keng qamrovli profilaktik ogohlantiruv tadbirlari amalga oshirilmoqda.

Mahallalarda xonadonbay tartibda o'tkazilayotgan profilaktik tad-

birlarda aholi o'rtasida yong'inlar, is gazidan zaharlanish yoki havo-gaz aralashmasining chaqnashi bilan bog'liq favqulodda vaziyatlarning oldini olishga qaratilgan tushuntirish va targ'ibot ishlari yanada kuchaytirildi.

Ro'zimatjon HALILOV,
Bo'stonliq tumani Ixtisoslashtirilgan ko'p tarmoqli boshqarmasi OYOXTTEB P va NB inspektori, katta leytenant.

RAHBAR VA YOSHLAR

Jizzax viloyati FVB tomonidan Jizzax shahridagi Sharof Rashidov uy muzeyida boshqarma boshlig'i va yosh qutqaruvchilar ishtirokida "Rahbar va yoshlar uchrashuvi" va "Noming dillarda mangu" shiori ostida sayohat tashkil qilindi.

"Rahbar va yoshlar uchrashuvi"da so'zga chiqqanlar tomonidan atoqli davlat arbobi, yozuvchi Sharof Rashidov hayoti va ijodi, uning bosib o'tgan yo'li, o'zbek halqi uchun olib borgan islohotlari, mehnatlarini va hozirgi kunda bu buyuk zotning xotirasini abadiylashtirish uchun olib borilayotgan say-harakatlar haqida o'z fikr-mulohazalari hamda Sharof Rashidovni Ikkinchi jahon urushidagi ko'rsatgan jasorati va vatanparvarligi to'g'risida to'xtalib o'tishdi. Uchrashuv qizg'in savol-javoblarga boy tarzda o'tkazildi.

So'ng ishtirokchilar Sharof Rashidov hayoti bilan bog'liq bir qator eksponatlar bilan tanishdilar. Muzey ilmiy

hodimi tomonidan Sharof Rashidovning hayot yo'li, viloyatda amalga oshirgan bunyodkorlik faoliyati haqida so'zlab berar ekan, nafaqat davlat va siyosat arbobi ekanligi, balki yuksak iste'dod sohibi va buyuk ijodkor shaxs ekanligi ham ta'kidlab o'tildi.

Tadbir so'nggida xizmat davomida yuqori natijalarga erishib, safdoshlariga o'mak bo'lib kelayotgan bir guruh qutqaruvchilarga boshqarma boshlig'ining tashakkurnomalari topshirildi.

Sardor SAFAROV,
Jizzax viloyati FVB bo'lim bosh inspektori, leytenant.

E'TIROF

Mudofaa vazirligi Ma'naviyat va madaniyat departamentida "Mardlar qo'riqlaydi Vatanni!", harbiy-vatanparvarlik qo'shiqlari ko'rik-tanlovi o'tkazildi. Unda Qurolli Kuchlar tizimidagi barcha vazirlik va idoralar xodimlari qatorida FVV harbiy xizmatchilari ham faol qatnashdilar.

Tanlovda yuzga yaqin professional va havaskor ijodkorlar, badiiy jamoalar, harbiy xizmatchilar va ularning oila a'zolari o'z ijod namunalari bilan ishtirok etdi.

E'tiborlisi, professional ijodkorlar o'rtasida "Vatanparvarlik ruhida lirik qo'shiqlar" yo'nalishida FVV Maxsus-muhandislik qurilish boshqarmasi orkestri xodimi kichik serjant Salixo'ja Jiyonovning "Umr o'tib borayotur" kompozitsiyasi hakamlar hay'ati tomonidan

yuqori baholanib, faxrii 3-o'ringa munosib ko'rildi.

Fursatdan foydalanib, kichik serjant S.Jiyonov hamda vazirlik tizimida faoliyat yuritayotgan barcha ijodkorlarni mazkur yutuq bilan samimiy muborakbod etib, kelgusi faoliyatlariga ulkan muvaffaqiyatlar tilaymiz!

Farrux ABDURAHMONOV,
FVV MMva TIB bo'lim boshlig'i, mayor.

REYD

SEO va JSX Toshkent shahar boshqarmasi Olmazor tumani bo'limi xodimi O.Sultanov va tuman FV bo'limi xodimi katta leytenant J.Mirzoyev bilan birgalikda tumandagi "Tansiqboev" dehqon bozorida oziq-ovqat bozorlarini tartibga solish, saqlash va ulardan foydalanish uchun sanitariya-gigiena talablari asosida hamda aholi o'rtasida ovqatdan zaharlanish va botulizm kasalliklarining oldini olish, yangi uzilgan xo'l mevalarni olib kelish va sotish tartibi, poliz mahsulotlarini issiq ob-havoda qolib ketishining va sut mahsulotlarining aynib qolmasligining oldini olish maqsadida reydtadbirlari olib borildi.

Tadbir davomida bozor rastalari va do'konlardagi oziq-ovqat mahsulotlarining sifatini kafolatlovchi hujjatlar



mavjudligi va ularning saqlash sharoitlari, muddati ko'zdan kechirildi. Sifati talab darajasida bo'lmagan oziq-ovqat mahsulotlari savdodan chetlatildi. Soha mutaxassislar tomonidan sotuvchilar bilan sanitariya-gigiena qoidalariga amal qilishlari yuzasidan sanitariya-targ'ibot ishlari olib borildi.

X.SUNNATIULLAYEV,
Olmazor tumani FV bo'limi bo'lim inspektori, katta leytenant.

TUSHUNTIRISH

Chust tumani "Chust Gulzori" MFY hududidagi qurilish ishlari davom etayotgan ko'p qavatli aholi yashash binosida tuman FV bo'limi 25-yong'in-qutqaruv qismi shaxsiy tarkibi va hamkor tashkilotlar ishtirokida amaliy-taktik mashg'ulot o'tkazildi.



Mashg'ulot davomida ko'p qavatli binoda shartli ravishda yong'in yuzaga keladi, uni zudlik bilan bartaraf qilish, binodagi ishchi-xizmatchilarni xavfsiz joyga evakuatsiya qilish, jabrlanganlarga birinchi tibbiy yordam ko'rsatish ishlari amaliy bajarildi.

Shuningdek, hamkor tashkilotlarning jangovar shayligi hamda hamkorlikda harakatlari amaliy sinab ko'rildi.

Mashq yakunida mahalla raisi ishtirokida ko'p qavatli binolarda yashovchi fuqarolarga favqulodda vaziyatlar yuzaga kelganda, is gazidan zaharlanish, yong'in yuz berganda qanday harakat qilish kerakligi haqida tushuntirish ishlari olib borildi.

Mirg'olim KARIMOV,
Chust tumani FV bo'limi boshlig'i o'rinbosari, kapitan.

CHORALAR KO'RILDI

Qashqadaryo viloyati Ko'kdala tumani FV bo'limi xarbiy xizmatchilari tomonidan bir qator ishlar amalga oshirilib kelinayapti.

Xususan, oylikni yuqori saviyada o'tkazish maqsadida o'rnatilgan tartibda 27 ta davlat tasarrufidagi, 18 ta tunda odamlar qoladigan davlat obyektlarida va 22 ta tadbirkorlik subyektlariga tegishli obyektlarda tekshirishlar, 17 ta tadbirkorlik subyektlariga tegishli obyektlarda yong'in-profilaktika ko'rikleri o'tkazildi. O'tkazilgan tekshirish va ko'riklarda 60 ta kamchilik



aniqlanib, 45 tasini joyida bartaraf etish choralari ko'rildi.

U.VALIYEV,
Ko'kdala tumani FV bo'limi boshlig'i o'rinbosari, P va NB boshlig'i, mayor.

MAKTABDA UCHRASHUV

Norin tumani Ixtisoslashtirilgan maktabida amaliy va nazariy uchrashuv o'tkazildi.

Unda tuman FV bo'limi boshlig'i tomonidan aholining yong'in xavfsizligi masalalarida bilim va ko'nikmalarini oshirish hamda ularda shaxsiy xavfsizlik madaniyatini shakllantirish, iqtisodiyot tarmoqlari, ijtimoiy soha obyektlari va uy-joy fondini yong'in xavfsizligi talablariga muvofiq holga keltirish, daxldor xizmatlar shu jumladan, pech va dudburonlarga xizmat ko'rsatishga ixtisoslashgan tashkilotlarni keng jalb qilgan holda ko'p qavatli va yakka tartibdagi uylar, tunda insonlar qoladigan muassasalar, shuningdek, ishlab chiqarish korxonalarini, bozorlar, yirik savdo markazlari hamda aholi ko'p yig'iladi-



gan boshqa obyektlarda yong'inlarning oldini olish bo'yicha keng ko'lamli profilaktik tadbirlar olib borish lozimligi to'g'risida ma'lumotlar berib o'tildi.

Bekzod MAMADALIYEV,
Norin tumani FV bo'limi boshlig'i o'rinbosari, mayor.

O'RGANILMOQDA

Toshkent Shahar Olmazor tumani FV bo'limi tomonidan iqtisodiyot tarmoqlari, ijtimoiy soha obyektlari va ko'p xonadonli uylarda favqulodda vaziyatlarning oldini olishga qaratilgan profilaktik tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Unda tuman gaz ta'minoti, tuman elektr tarmoqlari korxonasi, "Tohirjon GRPI ta'mir Beznes" MChJ dudburon xizmati va mahalla raislari hamkorlikda ishchi guruhlar tashkil etilib, is gazidan

zaharlanish, gaz-havo aralashmasini chaqnashi, botulizm, yong'inlar va boshqa yuzaga kelishi mumkin bo'lgan favqulodda vaziyatlarning oldini olishga qaratilgan ishlar olib borilayapti. Bundan tashqari, aholini qiynab kelayotgan muammolar bartaraf etilib, xavfsizlik qoidalariga rioya etish borasidagi eslatma va yo'riqnomalar tarqatilmoqda.

M.MURODOV,
Olmazor tumani FV bo'limi inspektori.

2025-YIL "ATROF-MUHITNI ASRASH VA "YASHIL" IQTISODIYOT YILI"

O'tgan asrning oxirlariga kelib, insoniyat g'oyat murakkab ekologik muammolar qarshisida turganligini anglab yetdi. Iqlim o'zgarishi, ozon qatlami-ning yemirilishi, cho'llanish va yerlar degradatsiyasi, bioxilmaxillik kamayishi, ichimlik suvi yetishmasligi, o'rmonlar qisqarishi kabi masalalar nihoyatda dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Jumladan, bugungi kunda cho'llanish dunyoning yuzdan ortiq mamlakatlariga daxl qilyapti. Achinarlisi, bu ko'p jihatdan inson omiliga bog'liq bo'lib qolayotir. Ya'ni tabiat mulkidan ayovsiz foydalanilishi, tuproq va shamol eroziyasi jarayonni yanada tezlashtirayapti.

Ming afsuski, bugungi kunda ba'zi yoshlarda yetarli ekologik madaniyatning shakllanmagani, ularga ota-onalari tomonidan tabiat muhofazasi yoki ekologik madaniyat to'g'risida yetarli tushuncha berilmagani sababli ona tabiatga, yashillik olamiga nisbatan hurmatsizlik, toptash, ezg'ilash, sindirish yoki ataylab zarar yetkazish holatlari uchraydi. Ona tabiatning ifloslanishi nafaqat yashillik olamiga salbiy ta'sir ko'rsatadi, balki inson salomatligiga ham jiddiy zarar yetkazadi. Birgina avtotransport vositasining dudbo'ronidan chiqadigan tutunda yuz xilga yaqin zaharli gazlar mavjud bo'lib, u biz nafas olayotgan atmosferaning musaffoligiga zarar yetkazadi. Ulug'larmiz ham "Atrof-muhitga mehrli, shafqatli munosabatda bo'linglar, suvga, o'zanlarga, serqatnov yo'llarga, soya-salqin joylarga chiqindi tashlab, la'natga qolishdan qo'rqinglar", - deya ogohlantirgan.

Bugungi kunda barqaror rivojlanish yo'lida ekologik toza ishlab chiqarishni rivojlantirish, energiya samaradorligini oshirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish dolzarb mavzuga aylandi. Shuningdek, atrof-muhitni muhofaza qilishga qaratilgan loyihalarni moliyalashtirish, ekologik muammolarni hal etishga qaratilgan tashabbuslarni qo'llab-quvvatlash ham bugungi kun uchun ahamiyatli mavzulardir.

Aslida mamlakatimizning go'zal tabiati, musaffo havosi, zilol va shifobaxsh suvlari asrlar davomida insoniyatni maftun etib keladi. Biroq, sanoatning rivojlanishi, energiya resurslariga talabning ortishi, tabiatga munosabatning o'zgargani iqlim o'zgarishlari, atrof-muhit ifloslanishi, suv taqchilligi kabi muammolarni ko'ndalang qo'ydi. Bu masalalar yechimini topish uchun "Yashil makon" umummilliy loyihasining hayotga joriy etil-

gani xalqimizning azaliy qadriyatlaridan biri bo'lgan bo'sh yerlarga ko'chat ekish, bog'rog'lar barpo etish an'analari qayta tikladi. Ona tabiatga daxldorlik tuyg'usini kuchaytirdi.

"Yashil" iqtisodiyotga o'tish g'oyasining ilgari surilgani energiya resurslari iste'molini diversifikatsiyalash va qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni rivojlantirishga, iqlim o'zgarishlari oqibatlarini yumshatib, tabiiy resurslardan foydalanish samaradorligini oshirishga, tabiiy ekotizimlarni asrashga, iqlim o'zgarishi sharoitida samarali, resurs tejankor va ekologik xavfsiz iqtisodiyotni ta'minlashga qulay yaratdi. Yangi yilning mamlakatimizda "Atrof-muhitni asrash va "yashil" iqtisodiyot yili" deb e'lon qilinishi bu boradagi ezgu ishlar natijadorligini oshirishga xizmat qilishi, yashil boyliklar salomatligimiz va farovon hayotimiz manbai ekanini yanada teranroq anglatishi bilan ham ahamiyatli bo'ldi.

Bu tashabbus mamlakatimizda ekologiya sohasi, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, o'simliklar va hayvonot dunyosini muhofaza qilish, aholi va yoshlarning ekologik huquq va madaniyatini oshirishga qaratilayotgan e'tiborning yorqin namunasi bo'ldi. Ushbu tashabbus nafaqat Yangi O'zbekistonning kelajak avlodlar oldidagi mas'uliyatini, balki mintaqada ekologik holatni yaxshilashga intilayotgan yetakchi davlat bo'lishga tayyorligini ham ko'rsatadi. Bu ilg'or ekologik tajriba va texnologiyalarni mamlakat kundalik hayotiga integratsiyalashuvida kuchli rag'bat bo'lib, tabiat, jamiyat va iqtisodiyot o'rtasidagi mutanosiblik asosida uyg'un rivojlanishga harakat qilayotgan boshqa mamlakatlar uchun ham namuna bo'la oladi.

Demak, bundan buyon ekologiya himoyachilarining vazifalari va vakolatlari kengaytirilishi kerak. Ular o'z ishlarini yanada samarali bajarishlari uchun oyliklar ham ish yuklamasiga mos oshirishi lozim. Ekologiya bo'yicha mutaxassislar ko'proq mas'uliyatni o'z zimmasiga olishi, ularning mehnat sharoitlari yaxshilanishi kerak. Bu yo'lda

resurslar, qo'llab-quvvatlash va motivatsiya ko'proq bo'lishi kerak, chunki ekologik muammolarni hal qilishda har bir xodimning hissasi katta. Shuningdek, yashil iqtisodiyotga o'tishda yoshlar faol jalb qilinishi, ularning yangi g'oyalari va ishlanmalariga imkoniyat berilishi muhim.

Shu bilan birga, atrof-muhitni asrashda plastik salafan paketlar kabi zararli materiallardan voz kechish kerak. Ularni almashtirish uchun ekologik toza, qayta ishlanadigan materiallarga e'tibor qaratish, jamiyatda ekologik ongini oshirish zarur. Yashil iqtisodiyotga o'tishda, har birimiz o'zimizni yangilashga va tabiatni hurmat qilishga majburlamiz.

Darhaqiqat, har bir fuqaro o'z oldidagi daraxtni, o'z uyi atrofidagi hududni, o'z mahallasini toza saqlashi, ekologik madaniyatni yuksaltirishga hissa qo'shishi kerak. Biz ana shu ezgu maqsadga amal qilib, aholining ekologik ongini oshirish, tabiatni muhofaza qilishga qaratilgan targ'ibot va tashviqot ishlarini kuchaytirish, ekologik madaniyatning ahamiyatini tushuntirish ishlarini olib borishimiz lozim. "Yashil" texnologiyalarni joriy etishga qaratilgan loyihalarni qo'llab-quvvatlash, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohasida ekologik toza texnologiyalarni qo'llashga hissa qo'shish bizning burchimiz. "Yashil" iqtisodiyotga o'tish jarayonida ijtimoiy adolatni ta'minlash, aholining ekologik toza mahsulotlarga bo'lgan talabini qondirish, ish o'rinlarini yaratishga qaratilgan chora-tadbirlarga hissa qo'shamiz.

So'nggi yillarda O'zbekistonda "Yashil makon" umummilliy loyihasi ekologik madaniyatni rivojlantirish, yashil hududlar yaratish va tabiiy resurslarni mustahkamlashga qaratilgan samarali dasturga aylandi. Qo'shni davlatlar bilan ishlab chiqilgan mintaqaviy iqlim strategiyasi esa barqaror rivojlanish va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi xalqaro hamkorlikning yuksak darajasini ifoda etadi. Bundan tashqari, O'zbekiston BMT tomonidan qabul qilingan ikkita muhim rezolyusiya tashabbuskori bo'ldi. Shu bilan birga, "yashil" energetika mamlakat iqtisodiyotining asosiy omillaridan biriga aylanib bormoqda. O'zbekiston barqaror va ekologik xavfsiz rivojlanish modeliga o'tayotgani, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, iqlim o'zgarishiga mos-



lashuv va aholining hayot sifatida ijobiy o'zgarishlarga yo'naltirilgan. 2025-yilda ham ushbu yo'nalishlarda tizimli ishlar davom ettiriladi. Xususan, yil davomida tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, yangi texnologiyalarni joriy etish va aholining ekologik madaniyatini oshirish, yashil hududlarni sezilarli darajada kengaytirish, chiqindilar muammosini hal etish, Orol fojiasi oqibatlarini yumshatish, aholi salomatligini mustahkamlash borasida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilishi kutilmoqda.

Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish, ekologik tadbirkorlik va innovatsion texnologiyalarni rivojlantirish mamlakatimiz iqtisodiy barqarorligini mustahkamlash, qo'shimcha ish o'rinlari yaratish imkonini beradi. Bu tashabbuslar O'zbekistonning ekologik mas'uliyatli va barqaror rivojlanayotgan davlat sifatida xalqaro maydonda mavqei mustahkamlashga ham yordam beradi.

"Yashil taraqqiyot"ga erishish uchun "yashil iqtisodiyot"ga o'tishimiz va uni rivojlantirishimiz lozim bo'lmoqda. Shu tufayli mamlakatimizda bunday iqtisodiyotni shakllantirish uchun yashil iqtisodiyotni rivojlantirish lozim. Yashil iqtisodiyot iqtisodiyot fanlarining bir yo'nalish sifatida o'tgan asrning oxirida paydo bo'ldi. Mazkur iqtisodiyot tabiiy muhitning tarkibiy qismi bo'lib, uning bir yo'nalishi hisoblanadi. Yashil iqtisodiyot tushunchasi iqtisodiy fanlar va falsafaning ko'plab boshqa sohasidagi g'oyalarni o'z ichiga oladigan tabiat va jamiyat bilan bog'liq ekologik iqtisodiyot, atrof-muhit iqtisodiyoti, resurslarga asoslangan iqtisodiyot, aholining rivojlanishi, feminizm iqtisodiyoti kabi yashil siyosat bilan bog'liq iqtisodiyotni o'z ichiga oladi. Yashil iqtisodiyot bu iqtisodiy tizim bo'lib, uning aso-

siy maqsadi sayyoramizning ekologiyasi va uni saqlab qolish bilan birga iqtisodiyotning barcha sohalarini rivojlantirishga qaratilgan. Shunday qilib yashil iqtisodiyot deganda, inson hayoti va sog'lig'i uchun zarur bo'lgan resurslarni, atrof-muhit va ekologiyani bir butun holda saqlab qolib ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalarini bilan bog'liq iqtisodiyotni yanada rivojlantirishni amalga oshirishga asoslangan iqtisodiy faoliyatning yangi yo'nalishi tushuniladi.

Mamlakatimiz kelajagi "yashil" iqtisodiyotni shakllantirishga bevosita bog'liq. "Yashil" iqtisodiyot iqtisodiy tizim bo'lib, asosiy maqsadi sayyoramizning ekologiyasini saqlab qolish bilan birga iqtisodiyotning barcha sohalarini faol omillar evaziga rivojlantirishga qaratilgan. U inson hayoti va sog'lig'i uchun zarur bo'lgan resurslarni, atrof-muhit va ekologiyani yaxlit holatda saqlab qolib, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalarini bilan bog'liq iqtisodiyotni yanada rivojlantirishga asoslangan faoliyatning yangi yo'nalishidir. Zero, tevarak-atrofimizda yashil hududlar kengayib, yashil qalqonlar ko'payishi ona tabiatimizni asrab-avaylab, kelgusi avlodlarga yetkazishda muhim ahamiyat kasb etadi. "Yashil" iqtisodiyot ekologik toza, energiya, suv va boshqa tabiiy resurslarni iqtisodiy qiladigan texnologiyalarni joriy etib, ekologiya xavfsizligini ta'minlaydi. Mamlakatimizning 2019-2030-yillarda "yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasini ro'yobga chiqarish, qayta tiklanuvchi, samarali energiya manbalaridan foydalanish imkoniyatlarimizni kengaytiradi. Iqlim o'zgarishi sharoitida samarali, resurs tejankor va ekologik xavfsiz iqtisodiyotni ta'minlaydi.

Anvar QOBILOV tayyorladi.



2025



Yanvar

Du 6 13 20 27
Se 7 14 21 28
Ch 1 8 15 22 29
Pa 2 9 16 23 30
Ju 3 10 17 24 31
Sh 4 11 18 25
Ya 5 12 19 26

Fevral

Du 3 10 17 24
Se 4 11 18 25
Ch 5 12 19 26
Pa 6 13 20 27
Ju 7 14 21 28
Sh 1 8 15 22
Ya 2 9 16 23

Mart

Du 3 10 17 24 31
Se 4 11 18 25
Ch 5 12 19 26
Pa 6 13 20 27
Ju 7 14 21 28
Sh 1 8 15 22 29
Ya 2 9 16 23 30

Aprel

Du 7 14 21 28
Se 1 8 15 22 29
Ch 2 9 16 23 30
Pa 3 10 17 24
Ju 4 11 18 25
Sh 5 12 19 26
Ya 6 13 20 27

May

Du 5 12 19 26
Se 6 13 20 27
Ch 7 14 21 28
Pa 1 8 15 22 29
Ju 2 9 16 23 30
Sh 3 10 17 24 31
Ya 4 11 18 25

Iyun

Du 2 9 16 23 30
Se 3 10 17 24
Ch 4 11 18 25
Pa 5 12 19 26
Ju 6 13 20 27
Sh 7 14 21 28
Ya 1 8 15 22 29

Iyul

Du 7 14 21 28
Se 1 8 15 22 29
Ch 2 9 16 23 30
Pa 3 10 17 24 31
Ju 4 11 18 25
Sh 5 12 19 26
Ya 6 13 20 27

Avgust

Du 4 11 18 25
Se 5 12 19 26
Ch 6 13 20 27
Pa 7 14 21 28
Ju 1 8 15 22 29
Sh 2 9 16 23 30
Ya 3 10 17 24 31

Sentyabr

Du 1 8 15 22 29
Se 2 9 16 23 30
Ch 3 10 17 24
Pa 4 11 18 25
Ju 5 12 19 26
Sh 6 13 20 27
Ya 7 14 21 28

Oktyabr

Du 6 13 20 27
Se 7 14 21 28
Ch 1 8 15 22 29
Pa 2 9 16 23 30
Ju 3 10 17 24 31
Sh 4 11 18 25
Ya 5 12 19 26

Noyabr

Du 3 10 17 24
Se 4 11 18 25
Ch 5 12 19 26
Pa 6 13 20 27
Ju 7 14 21 28
Sh 1 8 15 22 29
Ya 2 9 16 23 30

Dekabr

Du 1 8 15 22 29
Se 2 9 16 23 30
Ch 3 10 17 24 31
Pa 4 11 18 25
Ju 5 12 19 26
Sh 6 13 20 27
Ya 7 14 21 28



Vaziyat

gazetasi

Muassis:
O'zbekiston
Respublikasi
Favqulodda
vaziyatlar
vazirligi

Bosh muharrir
Azamat SUYUNOV

*Gazeta tahririyat
kompyuterxonasida
sahifalandi.*

Gazeta har haftaning
payshanba kuni chiqadi.
Topshirish vaqti – 15.00
Topshirildi – 15.00

Navbatchi:
A.QOBILOV

Sahifalovchi:
B.SALOHIDDINOV

Tahririyatga yuborilgan
materiallar qaytarilmaydi
va izoh berilmaydi.
Mualliflar fikri
tahririyat nuqtai nazaridan
farqlanishi mumkin.

Gazetadan olingan materiallar
manbasi ko'rsatilishi shart.

Gazeta O'zbekiston Matbuot va
axborot agentligida 2007 yil
3 yanvarda 0096-son raqam
bilan ro'yxatga olingan
ISSN 2091-5292

Tahririyat manzili:
100084, Toshkent shahri,
Yunusobod tumani,
Sh.Rashidov ko'chasi, 17-A-uy.
Tel.: (71) 212-69-56
Telegram: (90) 016-87-67

Indeks:
*yakka obunachilar va
tashkilotlar uchun - 382*

Gazeta "Sharq NMAK"
bosmaxonasida bosildi.
Manzil: Toshkent shahri,
Mirobod tumani
Buyuk Turon ko'chasi 41-uy
Buyurtma № G-152
Bichimi: A3, hajmi: 2 b.t.
Adadi - 14700 nusxa